

LILIYA TUR VA NAVLARINI MANZARALILIK VA KO‘KALAMZORLASHTIRISHDAGI AHAMIYATI BO‘YICHA BAHOLASH

Qobilova Mohigul

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

Annotatsiya. Liliyalarni baholashdan asosiy maqsad bu obodonlashtirishda foydalanish va ochiq maydon sharoitida yetishtirish uchun shuningdek, yopiq maydon sharoitida mavsumdan tashqari ekish hisoblanadi. Navlarning manzaralilik va iqtisodiy-biologik xususiyatlarini to‘liq aks ettiradi, ulardan foydalanishni hisobga olib, zamonaviy ishlab chiqarish talablariga javob beradigan eng yaxshi navlarni tanlashni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar. liliya tur va navlar, manzaralilik, ko‘kalamzorlashtirish, baholash

Kirish. Tadqiqotning maqsadi liliya navlarining manzaralilik xususiyatlari Samarqand viloyatidagi iqlim sharoitlarning ularga ta’sirini o‘rganish. *Lavon, Montego Bay, Honeymoon, Mister Pistache, Netty’s Pride, Purple Drem, Yellow Bruse, Corsage, Pearl White, Orange Ton, Sebiria, Stargazer, Navona va Josphine* liliya navlari Samarqand viloyati ochiq va yopiq maydonda muvaffaqiyatli o’sadi, gullaydi, urug’ beradi, va vegetativ tarzda yaxshi ko‘payadi. Liliyalarni baholashda turli xil xususiyatlariga qarab belgilanadi. Eng yuqori ball (5 ball) o’simlikning xususiyati yaxshi ifodalangan bo’lsa beriladi. Eng past ball (1 ball) o’simlikning xususiyati zaif ifodalangan yoki yo’q bo’lsa beriladi. Ball shunday tanlanadiki, barcha xususiyatlar 5 ball bilan baholanganda o’simlik maksimal 100 ball oladi. Manzaraligi uchun 80 balldan yuqori ball olgan o’simliklar yuqori manzaralilik xususiyatiga ega deb tan olinadi [2].

Liliyalarning davlat navini baholash tizimini va V.N.Bilov va A.Yu.Pugachayevaning manzarali o’simliklarning qiyosiy navlarini baholash bo‘yicha ishini asos qilib 150 ballik shkala ishlab chiqildi va ulardan foydalanishga qarab navlarning 2 xil guruhdagi xususiyatlari baholandi [3]. Keng qamrovli baholash manzaralilik va iqtisodiy-biologik xususiyatlarini baholashni kombinatsiyasi bilan aniqlandi. Navlarning manzaralilik xususiyatlari 100 ballik ko‘kalamzorlashtirishdagi xususiyatlari 50 ballik shkala bo‘yicha baholandi. Manzaralilik belgilari bo‘yicha kamida 90 ball, ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha kamida 40 ball to‘plagan navlar eng yaxshi deb topildi. Bunda bu manzaralilik va ko‘kalamzorlashtirish xususiyatlariga 130-145 ballgacha baholangan navlar *Lavon, Montego Bay, Honeymoon, Mister Pistache, Netty’s Pride, Purple Drem, Yellow Bruse, Corsage, Pearl White, Orange Ton, Sebiria, Stargazer* eng yaxshi navlar deb topildi va yuqori va manzaralilik xususiyatlariga ega deb baholandi 126-129 ballgacha baholangan navlar *Navona va Josphine* navlari esa yaxshi navlar deb topildi va bu navlar ham manzaralilik xususiyatlari

yaxshi deb baholandi. Zamonaviy ishlab chiqarish talablariga to‘liq javob bera oladigan navlar deb baholandi (2 jadval).

Belgilari	Yuqori baholash balli	Navlar													
		Lavon	Montego Bay	Honeymoon	Mister Pistachio	Netty's Peida	Navonzi	Purple Dream	Yellow Beauty	Corsage	Pearl White	Orange Ton	Siberia	Josphine	Stargazer
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
Manzaralik ballari															
Gul rangi	15	15	13	15	15	15	14	15	15	15	15	15	15	14	15
Gul diametri	15	15	14	15	15	14	14	14	14	14	14	14	15	14	14
Gul shakli	10	10	10	10	10	10	9	10	10	9	10	9	10	9	10
Gulpoya sifati	5	5	5	5	5	5	4	5	5	5	5	5	5	4	5
O'simlik bo'yi	10	9	9	9	9	8	8	9	9	9	8	9	9	8	9
Poyadagi gullar soni	15	14	12	12	12	14	14	13	13	15	12	13	12	11	12
Xaqqoniylik	10	10	9	10	10	10	9	10	9	9	9	9	10	9	9
O'simlik holati	5	5	4	5	5	5	4	5	5	5	5	5	5	4	4
Naqulay sharoitga Chidamliligi	10	10	8	9	9	10	8	8	8	9	8	9	9	8	8
Xushbo'yiligi	5	5	4	5	4	3	3	3	3	3	3	3	5	3	4
Jami:	100	98	88	95	94	94	87	92	91	93	89	91	95	84	90
Xo'jalikda biologik ballari															
Kasallik va zararkunandalarga chidamliligi	20	19	18	18	18	19	18	18	19	19	18	19	19	18	18
Tashqi muhit sharoitlariga umumiy chidamliligi	15	14	13	13	13	13	12	13	13	13	13	14	14	12	13
Noqulay sharoitlarda vegetatsiya qobiliyati	15	14	13	13	13	12	12	13	13	14	13	13	14	12	13
Jami:	50	47	44	44	44	44	42	44	45	46	44	46	47	42	44
Har tomonlama baholash	150	145	132	142	138	138	129	136	136	139	133	137	142	126	134



Lavon-Gul diametri 20-25 sm .gul rangi quyosh botishiga o‘xshash malina chetlari yorqin sariq markazi to‘q sariq rangga ega, dog‘i bor. Biroz gultojbarglari cho‘zilgan uchki qismi egilgan va nozik. Gul shakli-kosasimon. Xushbo‘y hidli. Gullash davomiyligi 8-11 kun.



MONTEGO BAY-Gul diametri 20-30 sm qizg‘ish och sariq rangli markaziy qismi qizil rangli dog‘lari bor.Gultojbarglari biroz qayrilgan,gul shakli-yulduzsimon, xushbo‘y hidli, gullash davomiyligi 8-11kun.



Honeymoon-Gul diametri 25-35 sm chetki qismi och sariq rangli, markazi esa sariq. Gul toj barglari biroz qayrilgan va chetki qismi tekis emas. Gul shakli-kosasimon. Juda o'tkir hidli, gullash davomiyligi 8-11 kun.



Mister Pistache-Gul diametri 23-35 sm chetki oq rangli markaziy qismi esa och sariq. Gul toj barglari qayrilgan va chetki qismi tekis. Gul shakli-kosasimon. Juda o'tkir hidli. Gullash davomiyligi 12-15 kun.



Netty's Pride-Gul diametri 12-13 sm chetki oq rangli markaziy qismi esa to'q binafsha nuqtasimon dog'i yoyilib ketgan. Gul toj barglari qayrilmagan va chetki qismi tekis. Gul shakli-varonkasimon. Gullar soni poyada 6-7 ta. Hidsiz, gullash davomiyligi 12-15kun.



Navona- Gul diametri 13-15 sm Gul rangi oq, dog'siz. Gultojbarglari biroz qayrilgan va chetki qismi tekis. Gul shakli-varonkasimon Gullar soni poyada-3-4 ta. Hidsiz, gullash davomiyligi 13-14 kun.



Purple Dream- Gul diametri 11-13 sm och binafsha to'q nuqtasimon dog'i yoyilib ketgan. Gultojbarglari qayrilgan va chetki qismi tekis. Gul shakli-kosasimon. Gullar soni poyada 3-4 ta. Hidsiz, gullash davomiyligi 13-15 kun.



Yellow Bruse- Gul diametri 14-16 sm to'q sariq to'q malladog'i yoyilib ketgan. Gultojbarglari qayrilgan va chetki qismi notekis. Gul shakli- sallasimon. Gullar soni poyada 5-6 ta. Hidsiz, gullash davomiyligi 14-15 kun.



Corsage-Gul diametri 8-11 sm och pushti markazi oq rangda, dog‘i yoyilib ketgan nuqtasimon. Gultojbarglari qayrilgan va chetki qismi tekis. Gul shakli-yulduzsimon. Gullar soni poyada-12-20 ta. Hidsiz, gullash davomiyligi 16-20 kun.



Josphine-Gul diametri 15-20 sm och pushti chetki qismi biroz oq, markazi nuqtasimon dog‘li. Gultojbarglari qayrilgan va chetki qismi notekis. Gul shakli-varonkasimon. Gullar soni poyada 4-6 ta. Xushbo‘y hidli, gullash davomiyligi 7-11 kun.



Siberia-Gul diametri 25-35 sm oq Gultojbarglari biroz qayrilgan va chetki qismi notekis. Gul shakli-yulduzsimon. Gullar soni poyada 8-10 ta Xushbo‘y hidli, gullash davomiyligi 12-16kun.



Stargazer-Gul diametri 20-25 sm to‘q pushti chetki qismi och pushti. Gultojbarglari qayrilgan va chetki qismi tekis. Gul shakli-yulduzsimon. Gullar soni poyada 3-4 ta. Xo‘shboy hidli, gullash davomiyligi 12-15kun.



Pearl White-Gul diametri 13-15 sm qaymoq rang. Gultojbarglari qayrilgan va chetki qismi tekis. Gul shakli-sallasimon. Gullar soni poyada 4-6ta. Hidsiz, gullash davomiyligi 12-15kun.



Orange Ton-Gul diametri 11-13sm to‘q sariq dog‘li. Gultojbarglari qayrilmagan va chetki qismi tekis. Gul shakli- varonkasimon. Gullar soni poyada 5-9ta. Hidsiz, gullash davomiyligi 12-15kun.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shernazarov, S. S., & Tashpulatov, Y. S. (2020). Species Composition of Algae in the Food Tract of Common Silver Carp (*Hypophthalmichthys molitrix* vab.) in Growing Conditions.
2. Shavkatillayevich, T. Y., & Shukhratovich, S. S. (2021). FORMATION OF ALGOCENOSES OF FISH PONDS IN CONNECTION WITH THE TORTURE OF WATER BODIES OF THE SAMARKAND REGION. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
3. Былов В.Н. Основы сортоизучения и сортооценки декоративных растений при интродукции // Бюл. Гл. ботан. сада. 1971. - Вып. 81- С. 69-77.
4. Mustanov, S., & Mustanova, Z. (2023). SUG ‘ORILADIGAN YERLARDA NO ‘XATNINING UMID NAVINI HOSILDORLIGIGA TA’SIRI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(4), 148-150.
5. Djumayeva, G. R., & Isomov, E. E. (2023). BUXORO VILOYATIDA O ‘STIRILGAN ARTISHOK “VIOLETTA” NAVINING ONTOGENEZI. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 1(9), 83-87.
6. Makhhammadiev, J. (2020). *Mikrokapsulyasyonda emulsifiye damlaciklarin korunmasinda kullanicak polimerlerin sentezi* (Master's thesis).
7. Isomov, E. (2023). ARTISHOK “CYNARA SCOLYMUS L.” NAVLARNING ONTOGENEZI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(5), 5-7.
8. Isomov, E. E., & Nomozova, Z. B. (2022). CHEMICAL COMPOSITION OF CYNARA SCOLYMUS L. AT DIFFERENT VEGETATIVE PHASES. *Academic research in educational sciences*, 3(Special Issue 1), 75-77.
9. Рахмонов, В. Н. (2023). МАИШИЙ ВА САНОАТ ОҚОВА СУВЛАРИНИ БИОЛОГИК ТОЗАЛАШДА КАРОЛИНА АЗОЛЛАСИ (*AZOLLA CAROLINIANA* WILLD.) ВА КИЧИК РЯСКА (*LEMNA MINOR* L.) ЎСИМЛИКЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 897-900.
10. Musaxon, Y., & Jasur, M. (2023). O ‘ZBEKISTONDA YETISHTIRILGAN MIRZOYI QIZIL VA SARIQ SABZI NAVLARINING TARKIBINI O ‘RGANISH. *Journal of Universal Science Research*, 1(11), 686-689. Raxmonov, V., & Xamroyev, A. (2023). O ‘TXO ‘R BALIQLAR UCHUN RYASKA (*LIMNA*) O ‘SIMLIGIDAN EKOLOGIK TOZA, ARZON VA TO ‘YIMLI OZUQA TAYYORLASH. *Science and innovation in the education system*, 2(12), 167-171.

11. Boboqandov, N. F., & Nomozova, Z. B. (2023). LEONTICE TURKUM TURLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, 4(SamTSAU Conference 1), 679-683.
12. Nurmanova, I., & Mahammadiyev, J. (2023). APPLICATION OF MICROENCAPSULATION TECHNOLOGY IN THE FIELD OF TEXTILES. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 712-715.
13. Boboqandov, N. F., Nomozova, Z. B., Gafurova, G. S., & Saydullayeva, I. S. LEONTICE EWERSMANNII BUNGI NING FENOLOGIK XUSUSIYATLARI.
14. Bobokandov, N., & Nomozova, Z. (2023). CHANGE IN THE NUMBER OF PLANT BUSHES THROUGH THE GRAZING GRADIENT OF SOUTHERN KYZYLKUM. *Science and innovation in the education system*, 2(4), 123-129.
15. Isomov, E. E., Djumayeva, G., & Qurasheva, S. N. (2023). ARTISHOK (CYNARA SCOLYMUS L.) NAVLARNING TURLI TUPROQ SHAROITLARIDAGI MAKRO BA MIKROELEMENTLAR TARKIBI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(19), 196-201.